

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.02 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDIG‘ANIYEVA SITORABONU MURODULLA QIZI

**O‘ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI BOZORINI DAVLAT
TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of doctor of philosophy on
economical sciences**

Abdig'aniyeva Sitorabonu Murodulla qizi

O'zbekiston qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish3

Абдиганиева Ситорабону Муродулла кизи

Совершенствование механизмов государственного регулирования рынка строительных материалов в Узбекистане25

Abdiganiyeva Sitorabonu Murodulla kizi

Improving the mechanisms of state regulation of the building materials market in Uzbekistan.....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of publications54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.02 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDIG‘ANIYEVA SITORABONU MURODULLA QIZI

**O‘ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI BOZORINI DAVLAT
TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Iqt2814 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lif portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yo'ldoshev Nuriddin Qurbonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Raximova Dilfuza Nigmatovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mirdjalilova Dildora Shuxratovna
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «10» oktabr soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, I. Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-28-71; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, I. Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (71) 239-28-72; faks: (71) 239-28-71; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «_____» _____ darijalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor)

G.Q. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.D. Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, PhD, dotsent v.b

R.X. Karlibayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurligi. Hozirgi davrda butun dunyo bo'yicha qurilish iqtisodiyotning yirik tarmog'i hisoblanadi. Qurilish sanoati samaradorligini oshirish imkoniyati ko'p jihatdan qurilish materiallari sanoatining rivojlanishiga bog'liq. Umuman olganda, sanoat korxonalarini qamrab olish binolar, inshootlarni qurish, ularni rekonstruksiya qilish va ta'mirlash uchun ishlatiladigan materiallarni qazib olish va ishlab chiqarish bilan bog'liq.¹ Jahonda ekologik «yashil» qurilish materiallari bozori hajmi 2022-yil oxiriga qadar 209,632 milliard AQSH dollarini tashkil etgan va bu davrida o'rtacha yillik o'sish sur'ati 9,73 foizga yetgan².

2020-yilda va 2021-yilning birinchi yarmida KOVID-19 pandemiyasi avjida hukumat tomonidan kiritilgan ta'qiqlar va cheklovlar global qurilish sektoriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi va shu bilan barqaror qurilish materiallari bozorining o'sishini chekladi, shu asnoda turar-joy mulki eng katta zarar ko'rdi, chunki yirik shaharlardagi qattiq cheklov choralar uylarni ro'yxatga olishning to'xtatilishiga va ipoteka to'lovlarning sekinlashishiga olib keldi. Ushbu cheklovlar olib tashlanganidan keyin sektor yaxshi tiklanmoqda, masalan: uy-joy sotuvining ko'payishi, yangi loyihalarning ishga tushirilishi va yangi ofislar va savdo maydonlariga talabning ortishi so'nggi ikki yil ichida bozorning tiklanishiga olib keldi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ham qurilish majmuasi, jumladan, qurilish materiallari sanoati muhim o'rinni tutadi. Uning holati mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Qurilish materiallari sanoati butun mintaqaga iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy tarmoqlardan biridir. Ayniqsa, uy-joy qurilishi ko'p jihatdan qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish holatiga bog'liq, chunki qurilish-montaj ishlari qiymati tarkibida qurilish materiallarining o'rtacha ulushi 60 foizdan ortiq. Bu shuni ko'rsatadiki, uy-joy narxi ko'p jihatdan qurilish materiallari narxiga bog'liq. O'zbekistonda qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish ularning tovar bozorlaridagi talabini, tabiiy-iqlim sharoitlarini o'rganishni, mavjud xom ashyo bazasidan optimal foydalanishni hisobga olgan holda iqtisodiy jihatdan asoslanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 01-fevraldag'i PF-60-sonli «2020-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydag'i PQ-4335-sonli «Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi PF-5392-sonli «Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi PF-5577-sonli

¹ Состав промышленности строительных материалов, ее место в строительном комплексе и национальной экономике. Статья. (дата обращения: 03.04.2016).

² <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/green-building-materials-market>

«Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldag'i PQ-139-sonli «Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy xujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'r ganilganlik darjasи. Qurilish materiallari bozorini tartibga solishda davlat boshqaruvini ahamiyati va qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartiblashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir tadqiqotlar prof. Robert A.Taylor, dr. Emili Jonson, prof. David Smit, dr Laura Martinez, dr. Maria Rodriguez, prof. Michael Harris, prof Bruton H.J. lar tomonidan olib borilgan.

MDH davlatlarida qurilish materiallari bozorini rivojlantirish muammolari mualliflar tomonidan o'r ganilgan Stepanov I.S., Rudnov V.S., Mashkin N.A., Ignatova O.A., Kiyatkina Ye.P., Fedorova S.V., Goroshkova A.V., Bondarenko A.A., Begzade G.Sh., Abdulloyev U. X., Dikamova A., Xalzova N. A., Nikolayev V.P., Zaytseva K.N., Animitsa Ye.G. kabi mualliflar tomonidan o'r ganilgan.

Mahalliy qurilish sanoatini davlat tomonidan tartibga solish usullari borasida olimlarimiz tadqiqotlar olib borishgan G'ulomov A.A., Qosimov E., Qosimov I., Nurimbetov R.I., Metyakubov A.D., Toshmuxamedova K.S. Matrizayeva D. Yu., Kurbaniyazov Sh.K., Djumaniyazov U.I., Abdullayev A.A kabi olimlarimiz tadqiqotlar olib borishgan.³

Yuqorida oimlarning ilmiy ishlarni tahlil etish qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yetarli o'r ganilmaganligini ko'rsatdi. Ushbu muammoning dolzarbligi va yetarlicha ishlab chiqilmaganligi tadqiqot mavzusini tanlashda muhim omil bo'lib xizmat qildi hamda uning maqsadi va vazifalarini belgilab berdi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lif muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining «O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishni ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari hamda uslubiyatlarini takomillashtirish» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

³ Qosimov E., Qurilish ashyolari: Oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun darslik. — T.: «Mehnat», 2004-y.; Qosimov I. Arzon zamonaviy qurilish ashyolari. Darslik. Toshkent arxitektura qurilish instituti. — T.: Cho'lpnomidagi NMIU. 2017.; Metyakubov A.D.

Tadqiqot vazifalari: Qurilish materiallari bozorini shakllantirish va rivojlantirish tendensiyalarini o‘rganish, milliy qurilish materiallari bozoriga xos qulaylashtiruvchi va cheklovchi omillarni aniqlash va uni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llarini aniqlash;

O‘zbekiston qurilish materiallari bozorini tartibga solishda davlat boshqaruvining o‘rni ustuvor ekanligini ilmiy asoslash;

mamlakatda qurilish materiallari bozorini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini aniqlash;

O‘zbekistonning qurilish materiallari ishlab chiqarish salohiyatini baholash;

qurilish materiallari ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ko‘rsatgichlarini asoslash;

bozorni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari asosida qurilish materiallari tayyorlash tizimini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini olingan.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston Respublikasi qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishga doir tashkiliy - iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning nazariy va empirik usullaridan keng foydalanilgan. Xususan, rasmiy-mantiqiy, operatsiyalarni tadqiq etish, boshqaruv masalalarini yechish, sabab-oqibat bog‘lanishlarni aniqlash usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish loyihamonlari amalga oshirayotgan kichik tadbirkorlik subyektlariga tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan investitsiya loyihamonlari amalga oshirish doirasida beriladigan bank kreditlari summasining 50 foizigacha miqdorida kafillik hamda mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga qimmat import qilinuvchi xom ashyoni sotib olishda imtiyozlar berish taklifi asoslangan;

qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini mamlakatda ishlab chiqarilayotgan qurilish mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda pozitsiyalash hamda qurilish materiallari bozorini barqarorlashtirish orqali takomillashtirishga doir taklif berilgan;

mamlakatga 5 turdagи energiya tejamkor va ekologik (yashil) qurilish materiallari va xom ashyolarni import qilishda nol bojxona stavkasini qo‘llash asosida qurilish materiallari bozorida ekologik xom ashyolardan foydalanishni kengaytirish taklifi asoslangan;

«O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi korxonalarini iqtisodiy faoliyati asosiy tendensiyalarining ekonometrik modellari asosida 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mahalliy qurilish materiallari bozoridagi tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy imtiyozlar orqali qo'llab quvvatlash va import hajmiga ta'sir etuvchi omillarni baholash to'g'risidagi taklif ishlab chiqilgan;

Qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston qurilish materiallari bozorining SWOT tahlili asosida qurilish tarmog'idagi tarkibiy islohotlar va muammolari amaliy jihatdan ishlab chiqilgan;

«O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi iqtisodiy ko'rsatkichlarini optimallashtirishning ko'p omilli ekonometrik modeli tavsiya etilgan.

Olingan natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining tahlili jarayonida O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning amaliy ahamiyati qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish asosida qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini bosqichma-bosqich oshirish imkonini beradi, qurilish materiallari importini mahalliy bozorlarimizdan siqib chiqarish imkonini yaratadi.

Dissertatsiya tadqiqotida erishilgan natijalar, ilmiy-amaliy xulosa va tavsiyanomalardan qurilish materiallari bozori talablarini hisobga olgan holda qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish asosida milliy qurilish materiallari bozorlarini shakllantirishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallaridan «Menejment» «Marketing», «Strategik menejment», «Marketing tadqiqotlari», «Ishlab chiqarish menejmenti» kabi fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari tayyorlashda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish materiallarini ishlab chiqarish loyihalarini amalgalash oshirayotgan kichik tadbirkorlik subyektlariga tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan investitsiya loyihalarini amalgalash oshirish doirasida beriladigan bank kreditlari summasining 50 foizigacha miqdorida kafillik hamda mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga qimmat import qilinuvchi xom ashyoni sotib olishda imtiyozlar berish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6244-sonli «Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori doirasida 14 turdag'i qurilish materiallarini ishlab chiqarish bo'yicha tadbirkorlarga berilgan imtiyozga binoan oxirgi yillarda ishlab chiqarish hajmi 23 foizga oshdi. Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2022-yilda amalgalash oshdi.

oshirilgan qurilish ishlari hajmi 12 114,5 milliard so‘mni tashkil etgan, 2021-yilning mos davriga nisbatan qurilish-montaj ishlari xajmi 85,7 foizga oshgan. (2023-yil 8-maydagi 05/15-1009-sonli ma’lumotnoma).

Qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini mamlakatda ishlab chiqarilayotgan qurilish mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda pozitsiyalash hamda qurilish materiallari bozorini barqarorlashtirish orqali takomillashtirish taklifi asosida mamlakatda qurilish materiallari ichki bozor hajmi o‘rtacha 1 foizga, tashqi bozor aylanmasi o‘rtacha 0,75 foizga oshib, qurilish materiallari mahalliy bozori sezilarli darajada barqarorlashgan. (2023-yil 8-maydagi 05/15-1009-sonli ma’lumotnoma).

Mamlakatga 5 turdagи energiya tejamkor va ekologik (yashil) qurilish materiallari va xom ashylarni import qilishda nol bojxona stavkasini qo‘llash asosida qurilish materiallari bozorida ekologik xom ashylardan foydalanishni kengaytirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-apreldagi PF-51-son «2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta’minalash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonining 3-ilovasida o‘z aksini topgan. Mazkur ilmiy yangilikning amaliyatga joriy etilishi natijasida 5 turdagи energiya tejamkor qurilish materiallari va xom ashylarga 2023-yil 1-maydan boshlab tegishli bojxona imtiyozlari berish orqali qurilish materiallari bozorida ekologik xom ashylardan foydalanishni kengaytirishga erishilgan va mahalliy qurilish materiallari bozori jahon standartlariga mos ekologik qurilish materiallari bilan to‘yingan. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2023-yil 22-iyundagi 21/05-23-0014-sonli ma’lumotnomasi).

«O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi korxonalari iqtisodiy faoliyati asosiy tendensiyalarining ekonometrik modellari asosida 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan hamda qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish natijasida vujudga keluvchi istiqboldagi asosiy faoliyat ko‘rsatkichlarini o‘zaro muvofiqlashtirish imkonini yaratilgan. (2023-yil 8-maydagi 05/15-1009 sonli ma’lumotnoma).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, shu jumladan, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ma’ruza shaklida bayon etilgan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan OAK e’tirof etgan ilmiy журнallarda 2 ta ilmiy maqola, nufuzli xorijiy журнallarda 3 ta ilmiy maqola, shuningdek ilmiy-amaliy konferensiyalarda 5 ta ma’ruza va tezislar nashr etilgan.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uch bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 121 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, shuningdek tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Qurilish materiallari bozorini tartibga solishning nazariy – uslubiy asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida xorijiy va mamlakatimiz olimlarining menejmentni tartibga solish funksiyasi mazmuni, mohiyatini ochib beruvchi fikrlari, ilmiy ta’riflari umumlashtirilgan va mualliflik xulosalari chiqarilgan. Tartibga solish funksiyasini turlari va bosqichlari aniqlangan, tamoyillari asoslangan.

Iqtisodchi olim N.Q.Yo‘ldoshev fikriga ko‘ra, «Boshqaruv insonlar bilan birga paydo bo‘lgan. U mehnatning taqsimlanishi va kooperatsiyalanishi jarayonida faoliyatning mustaqil turiga ajralgan. Bu odamlarning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish zarurligi bilan asoslangan.»⁴

Taniqli iqtisodchi olimlarimizdan M. Sharifxo‘jayev va Yo. Abdullayevning ta’limotlari bo‘yicha, «tartibga solish muvofiqlashtirishning davomi bo‘lib, u sodir bo‘lib turadigan og‘ishlarni bartaraf qilish yo‘li bilan ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirishni maqsad qilib qo‘yadi. Uning yordami bilan vujudga kelish ehtimoliutilgan og‘ishlarning oldi olinadi.»⁵

Iqtisodchi olim A.G. Porshnev va boshqalar «Menejmentdagi tartibga solish - bu belgilangan parametrlardan chetga chiqqanda tizimda barqarorlik holatiga erishiladigan boshqaruv obyektiga ta’sir qilishdir.» – deb o‘z fikrini bildirganlar.⁶

A.Yu. Ryabsev fikriga ko‘ra «tartibga solish - bu og‘ishlarni bartaraf etish orqali tizimning xususiyatlarini ma’lum bir trayektoriya bo‘yicha saqlash jarayonidir». ⁷

Tartibga solish uch bosqichda amalga oshiriladi:

- 1) o‘zgaruvchilar haqiqiy holatining talab qilinganidan og‘ishlarini tekislash (zahiralarni o‘z vaqtida to‘ldirish, jihozlarni ta’mirlash);
- 2) kompensatsion xususiyatga ega bo‘lgan tizimni kerakli holatdan chiqaradigan omilni (materiallarni o‘z vaqtida olishni ta’minlamaydigan yetkazib beruvchiga nisbatan qonuniy jazo choralarini) bartaraf etish orqali;
- 3) tizimni buzilishlardan ajratish orqali.

⁴ Yo‘ldoshev, N.K. Menejment [Matn]: darslik /N.K. Yoldoshev, G.E. Zaxidov. - Toshkent: «0‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 5 b.

⁵ Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Yo. Menejment: Darslik. - Toshkent, O‘qituvchi. 2001-y. 78 b.

⁶ Управление организацией: Учебник. /Под ред. А. Г. Поршнева, З. П. Румянцевой, Н. Саломатина. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2002. - 32 с.

⁷ Рябсев, А. Ю. Менеджмент: экономические аспекты управления [Текст]: учеб. пособие/А. Ю. Рябсев, Т. Б. Загоруля; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. гос. экон. ун-т. - Екатеринбург: [Изд-во Урал. гос. экон. ун-та], 2017. — 38 с.

V.R. Vesennin esa «Tartibga solishning vazifasi tashkilot maqsadlariga o‘z vaqtida va samarali erishishni ta’minlash uchun rejalashtirilgan maqsadlarni, me’yorlarni, standartlarni yangilashdir.»⁸- deb ta’rif bergan.⁸

Erkin bozorni tartibga solishda davlat faol ishtirok etishi lozim, chunki unga qator vazifalar yuklatiladi:

1. jamiyatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash;

2. moddiy boyliklar va daromadlarni qayta taqsimlash orqali aholini ijtimoiy himoyalash;

3. davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini nazorat qilish orqali iqtisodiyot sohalarining mutanosib rivojlanishini ta’minlash;

4. barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash;

Davlatning ana shu vazifalaridan kelib chiqib O‘zbekistonda qurilish materiallari bozorini tartibga solish yo‘nalishlari ishlab chiqildi va ushbu masalaga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar maxkamasining qarorlari tizimlashtirilib, tegishli xulosalar chiqarildi.

Dissertatsiyaning «**O‘zbekiston qurilish materiallari bozori tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonning qurilish materiallari ishlab chiqarish salohiyati, qurilish materiallari bozorining rivojlanishi tahlili, O‘zbekiston qurilish materiallari bozorida importning o‘rni yoritib berilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi 12,5 mingdan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda, ularning turlari soni esa 180 dan oshgan. «Shuningdek, 24 ta tuman (shahar) qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.»⁹ 2022-yilga kelib yuqori sifatli qurilish materiallari ishlab chiqarish bo‘yicha 667 ta xalqaro standart qabul qilingan.

«O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining 2016-2022-yillardagi moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu yillardagi barcha ko‘rsatkichlar dinamikasi saqlanib qolgan

1-jadval

«O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili¹⁰, mlrd so‘m.

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar							2022-yilning 2016-yilga nisbati % da
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati bo‘yicha bahosi	1829	2160	2659	3942	2638	2698	3573	195
2	Sotilgan mahsulotlar tannarxi	1401	1639	1963	3041	1946	2224	2204	157
3	Foyda solig‘ini to‘lashgacha foyda	584	1018	1040	1572	899	1272	849	145

⁸ Веснин, В.Р. Основы менеджмента: Учебник/В.Р. Веснин. - М.: Проспект, 2016. - 52 с.

⁹ <https://www.gazeta.uz/ru/2021/06/15/building-materials/>

¹⁰ «O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

«O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining 2016-2022-yillardagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati bo‘yicha bahosi shu yillarda 195 foizga, sotilgan mahsulotlar tannarxi 157 foizga, foyda solig‘ini to‘lashgacha foyda esa 145 foizga ortganini ko‘rishimiz mumkin.

So‘nggi ikki yil qurilish sektori uchun qiyin bo‘ldi. Professional hamjamiyat bozorni ushlab turish va barqarorlikni saqlash uchun juda ko‘p mehnat talab qildi. Pandemiya vaziyatiga qaramay, qisqa turg‘unlikdan so‘ng hokimiyat ko‘magida uy-joy va savdo ob’ektlarini qurish bo‘yicha qurilish maydonlarida ishlar tiklandi. Bugungi kunda sohada 1,5 millionga yaqin quruvchi faoliyat yuritadi. 2021-yil holatiga ko‘ra qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 43,3 mingtaga yetdi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 5 mingtaga ko‘pdir.

Korxonaning moliyaviy holati to‘g‘ridan to‘g‘ri aktivlarga qo‘yilgan mablag‘larning qanchalik tez real pulga aylanishiga bog‘liq.

O‘zbekistonda 2023-yilning birinchi yarmida qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi 60325,4 milliard so‘mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 106,2 foizni tashkil etdi. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning birinchi yarmida bino va inshootlar qurilishi 2022-yilning shu davriga nisbatan 66,9 foizga o‘sdi. Fuqarolik obyektlarini qurish 21,1 foiz darajasida o‘sishi belgilandi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 150,4 foizni tashkil etdi. Qurilish sanoati rivojlanishining yuqori dinamikasi mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqarishning o‘sishi bilan tavsiflanadi.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning birinchi yarmida qurilish xarajatlari 52,147 trillion so‘mni tashkil qilgan. O‘tgan yilga nisbatan o‘sishi 104,7 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, davlat tashkilotlari tomonidan 1 trillion 971 milliard so‘mdan ortiq qurilish ishlari bajarildi. Shunday qilib, ularning respublikadagi ulushi 4,1 foizni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2022-yilda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 12 114,5 milliard so‘mni tashkil etdi. 2021-yilning mos davriga nisbatan ko‘rib chiqilayotgan davrda qurilish-montaj ishlarining o‘sishi 85,7 foizga yetdi va ularning umumiyligi hajmdagi ulushi 4,5 foizga kamayib, 24,9 foizni tashkil etdi.¹¹

Uy-joy qurilishi qurilish sanoatining lokomotivi bo‘lib qolmoqda. Qurilish sanoati korxonalarini sonining 2022-yil holatiga 2021-yilning mos davriga nisbatan 113,0 foizga o‘sishiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy omil bino va inshootlar qurish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar sonining o‘sishidir, ya’ni tuzilmalar 56,9 foizga qurilish sanoati korxonalarini umumiyligi sonidan (o‘sish sur’ati – 111,0 foiz), fuqarolik obyektlari – 9,9 foizga (o‘sish sur’ati – 115,9 foiz), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 33,2 foizga (o‘sish sur’ati – 115,7 foiz) oshgan.

Qurilish korxonalarini umumiyligi sonining 56,9 foizi bino va inshootlar qurishga, 9,9 foizi fuqarolik ob’ektlari qurishga, 33,2 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

¹¹ <https://e-cis.info/news/566/94024/>

Bugungi kunga qadar «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi tarkibiga 100 dan ortiq turdag'i qurilish materiallari ishlab chiqaradigan 120 dan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda, ularning aksariyati rivojlanayotgan qurilish materiallari bozoriga yo'naltirilgan kichik korxonalaridir.

Qurilish materiallarining ayrim turlari uchun ustunlik texnologik omil bilan bog'liq bo'lib, birinchi navbatda murakkab va qimmat uskunalar, yirik ishlab chiqarish maydonlari, yuqori malakali ishchilar va boshqalarni talab qiladi.

Qurilish materiallari sanoati asosiy tarmoq sifatida ishlab chiqaruvchilarni rivojlanayotgan arxitektura paradigmalari, qurilish standartlari va qurilish texnologiyalariga normalariga rioya qilishga to'g'ri keladigan qurilish materiallarini yetkazib berish uchun tashkil etiladi.

2-jadval

«O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining ishlab chiqarish faoliyati baholanishi¹², mlrd.so'm

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					2022-yilning 2018-yilga nisbatan o'zgarishi, %
		2018	2019	2020	2021	2022	
1	2	5	6	7	8	9	10
1	Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, mlrd.so'm.	1217	1400	1946	2224	2204	181
2	Mahsulot sotishdan tushgan tushum, mlrd.so'm.	2451	2763	3209	4000	3665	150
3	Asosiy fondlarning o'rtacha qiymati, mln so'm	690	835,8	1057	979	1672	242
4.	Zaxiralarning o'rtacha qiymati, mln.so'm	685	758	789	879	1125	164
5	Aylanma mablarning o'rtacha qiymati, mln.so'm	1793	1989	2097	2192	1816	101
6	Debitorlik qarzdorligining o'rtacha qiymati, mln.so'm	319	419	497	1033	481	151
7.	Kreditorlik qarzdorligining o'rtacha qiymati, mln.so'm	380	579	301	279	555	146
8	Barcha aktivlarning o'rtacha qiymati, mlrd so'm	2914	3495	4287	5559	6176	212

«O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining ishlab chiqarish faoliyati baholanishi 2018-2022-yillardagi ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, shu yillar mahsulot ishlab chiqarish tannarxi 181% ga, mahsulot sotishdan tushgan tushum 150% ga, asosiy fondlarning o'rtacha qiymati 242 % ga, zaxiralarning o'rtacha qiymati 164% ga, kreditorlik qarzdorligining o'rtacha qiymati 146% ga, barcha aktivlarning o'rtacha qiymati 212% ga ortgan holda, aylanma

¹²«O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

mablag‘larning o‘rtacha qimati 101% ga va debitorlik qarzdorligining o‘rtacha qiymati 151% ga ortganini ko‘rish mumkin.

Mulkning turli shakllarini rivojlantirish va xo‘jalik yurituvchi subyektlaming rolini oshirish asosida investitsion-qurilish jarayonlarini nomarkazsizlashtirish tamoyili kapital qo‘yilmalarning tarkibini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Davlat investitsiyalarining yuqori darajasi korxonalar va aholi, shirkatning faolligini oshirishga yordam berdi. Hozirgi kunda investitsiyalaming umumiyligi hajmida byudjet mablag‘lari ulushi uchdan bir qismidan kam, qolgan qismi korxonalar mablag‘lari, bank kreditlari, aholi mablag‘lari, xorijiy va boshqa investorlar hisobiga to‘g‘ri keladi.

3-jadval

«O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi bo‘yicha 2016-2022-yillarda Investitsiya dasturi doirasida qurilish materiallari ishlab chiqarishni tashkil etish loyihamalarining amalga oshirilishi bo‘yicha YIG‘MA MA’LUMOT¹³, mln dollar

Yillar	Loyi- halar soni	Loyiha- larning umumiyligi qiymati (mln. dollar)	Investitsiya mablag‘larini o‘zlashtirish, jami		bajari- lishi, %da	shundan xorijiy investitsiyalar		bajari- lishi, %da
			prog- noz	haqi- qat		prog- noz	haqi- qat	
2016	19	183,3	68,2	73,4	107,7%	21,6	21,6	100,0%
2017	22	335,5	69,8	71,3	102,1%	26,1	27,3	104,8%
2018	13	203,2	72,4	73,3	101,3%	15,3	17,6	114,9%
2019	10	411,4	123,0	130,4	106,0%	98,3	106,8	108,6%
2020	20	642,3	248,5	260,3	104,8%	208,8	210,6	100,9%
2021	17	868,5	274,9	277,0	100,8%	200,7	201,1	100,2%
2022	41	887,8	327,6	328,3	100,2%	201,0	201,6	100,3%

«O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasida Investitsiya dasturi doirasida qurilish materiallari ishlab chiqarishni tashkil etish loyihamalarining amalga oshirilishi 2022-yilda 2016-yilga nisbatan quyidagicha o‘zgargan: loyihamalar soni 22 taga, loyihamalarning umumiyligi qiymati 704,5 mln AQSH dollarga ortgan bo‘lib, jami investitsiya mablag‘larini o‘zlashtirish esa 2022-yilda 102,2 foizni tashkil etib, jami investitsiyada xorijiy investitsiyalar shu yillarda 180 mln AQSH dollariga ortgan bo‘lib, 2022-yilda o‘zlashtirish 100,3 foizni tashkil etgan.

Qurilish faoliyatini faol davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muofiqligi mamlakatda mavjud bo‘lgan real shart-sharoitlar bilan belgilangan. Belgilangan vazifalarni hal etish va qurilish sohasining milliy iqtisodiyotni yuksaltirishdagi roli sezilarli darajada boshqaruv tizimiga bog‘liq bo‘lib, u muayyan natijalarga erishish uchun boshqaruv obyektining boshqaruv subyektiga bo‘lgan maqsadli ta’sirini ifodalaydi. Bu amaliyotda allaqachon tasdiqlangan, boshqaruv tizimi yanada mukammal, iqtisodiy mexanizm va ilmiy-

¹³ «O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

texnika taraqqiyotining talablariga yanada ko‘proq javob beradigan bo‘lsa, shunchalik ishlab chiqarishning miqdoriy va sifat natijalari ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi hamda ishlab chiqarishga jalb qilingan resurslarning qaytishi (unumi) shunchalik jadallahashi.

4- jadval

Qurilish materiallari sanoatida mahsulot tannarxi tarkibi, %¹⁴

Xarajatlar turlari	Yillar					2022-yil 2018-yilga nisbatan o‘zgarishi (+/-)
	2018	2019	2020	2021	2022	
1	2	3	4	5	6	7
Moddiy xarajatlar	84	97	125	181	289	344
Amortizatsiya	1382	1491	1581	1718	1901	138
Ish haqi	307	354	390	446	476	155
Boshqa xarajatlar	582	608	647	593	639	110

Qurilish materiallari sanoatida mahsulot tannarxi tarkibi, 2022-yilda 2020-yilga nisbatan moddiy xarajatlar 344 foizga, amortizatsiya xarajatlari 138 foizga, ish haqi xarajatlari 155 foizga ortgan holda, boshqa xarajatlar 110 foizga kamayganini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish hajmini oshirishning asosiy manbai import o‘rnini bosish jarayonini takomillashtirish va tannarxni pasaytirish, qurilishda zamonaviy yuqori sifatli qurilish materiallari va ishlab chiqarishda energiya sarfini kamaytiruvchi mahsulotlarni qo‘llash orqali tayyor ob’ektlarning arzonligini ta’minalash va robototexnikadan foydalanish imkoniyati, shuningdek, materialni kamroq iste’mol qiladigan va tayyor ishlab chiqarishni ko‘paytiradigan konstruktiv yechimlar bu, albatta yakuniy mahsulot tannarxiga ijobiy ta’sir qiladi.


Tadqiqot ishimizda keltirilgan qurilish sohasidagi import o‘rnini bosish muammosi ko‘p yillar davomida dolzarb bo‘lib kelgan. O‘zbekiston qurilish industriyasi bozorni zarur qurilish materiallari bilan to‘liq ta’minalay olishiga qaramay ishlab chiqaruvchilar qimmatbaho import xomashyosini sotib olishga majbur.

Qurilish sohasida import o‘rnini bosishga mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xorijiy kompaniyalar bilan bozor asosida raqobatlasha oladigan sharoitlarni yaratish sifatida qarash kerak.

Qurilish materiallari bozorining har bir bo‘g‘inida qabul qilinayotgan va amalga oshirilayotgan qonun hujjatlari mazkur sanoat uchun tartibga soluvchi muhitni shakllantiradi. Ushbu qoidalar litsenziyalash talablari, import va eksport

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

qidalari, soliq siyosati, atrof-muhit standartlari hamda bozordagi biznes faoliyatiga ta'sir qiluvchi boshqa jihatlarga bevosita va bilvosita ta'sir etadi.



1-rasm. O‘zbekiston qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning amaldagi mexanizmi¹⁵

Qurilish materiallari sanoatining rivojlanishi butun qurilish majmuasining rivojlanishiga yordam beradi. Qurilish majmuasining muvaffaqiyatli rivojlanishi nafaqat mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida o‘sishni rag‘batlantirish, balki eng dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qilishga ham hissa qo‘shishi mumkin.




2-rasm. O‘zbekiston qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning tashkiliy mexanizmi¹⁶

¹⁵ Muallif ishlanmasi

¹⁶ Tadqiqot va tahlil natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Qurilish industriyasining ko‘plab muammolari (masalan, materiallar, butlovchi buyumlar va energiya tashuvchilar narxlarining ortib borayotgan o‘sishi, uy-joy narxlarining oshishiga olib kelishi) qurilish materiallari sanoatining yetarli darajada samaradorligi bilan bog‘liq emas. Qurilish materiallari sanoatini ham haqli ravishda iqtisodiyotdagi real investitsiya faolligining o‘ziga xos ko‘rsatkichi deb atashadi. Mahsulot turlarini kengaytirish va sohada istiqbolli loyihalarni amalga oshirishni hisobga olgan holda qurilish sanoati xomashyo bazasini kengaytirish va qurilish materiallarini amalda ishlab chiqarish parametrlari taqdim etiladi. Shuningdek, ichki va tashqi bozorlarni sifatli, arzon va energiya tejamkor mahsulotlar bilan ta’minlaydigan innovatsion tipdagi muhim iqtisodiyot tarmog‘ini rivojlanishining aniq ustuvor yo‘nalishlari belgilandi.



3-rasm. O‘zbekiston qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmi¹⁷

Qurilish materiallarining ayrim turlari uchun ustunlik texnologik omil bilan bog‘liq bo‘lib, birinchi navbatda murakkab va qimmat uskunalar, yirik ishlab chiqarish maydonlari, yuqori malakali ishchilar va boshqalarni talab qiladi. Qurilish materiallari sanoatining rivojlanishi, eng avvalo, respublika iqtisodiyotidagi investitsion faoliyat o‘lchovi, tarmoqlarni isloh qilish sur’ati, kapital qo‘yilmalar tarkibidagi o‘zgarishlar bilan belgilanadi.

¹⁷ Muallif ishlanmasi

Mutaxassislarning fikricha, qurilish materiallari sanoatining o'sishi dasturlarni modernizatsiya qilish bo'yicha o'rta muddatli davlat dasturlari doirasidagi katta hajmdagi kapital qo'yilmalar bilan bog'liq.¹⁸

Radikal innovatsiyalarga o'zining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha keng ma'lum bo'lgan, lekin ba'zi xossalari bo'yicha takomillashtirilgan yoki butunlay yangi, ilgari hech kimga ma'lum bo'lмаган mahsulot va jarayonlar kiradi. Radikal innovatsiyalarning xarakterli xususiyatlari shundaki, ular amaldagi mavjud texnologiya va mahsulotlardan butunlay farq qiladi va ularni amalga oshirish xavfi yanada yuqori bo'ladi.

Faqatgina mahalliyashtirish dasturi doirasida Navoiy kon-metallurgiya kombinati, «Zhong Tian» mas'uliyati cheklangan jamiyatni va «Ben-tonite» mas'uliyati cheklangan jamiyatidagi ishtirokchi korxonalar tomonidan 1545,9 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, importning qisqarishi hisobiga viloyat byudjetining qariyb 149 ming dollar mablag'i tejaldi. Qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarmoq sanoat korxonalarini bilan 16,1 milliard so'mlik kooperatsiya aloqalari amalga oshirildi. Hududiy segmentda 33 ta shunday ishlab chiqarish, jumladan, mahalliy sanoatning «Qizilqumsement» MCHJ, «Green Line Profil» MCHJ, «National Plast» MCHJ va «Trium» MCHJ korxonalarini mavjud bo'lib, ularning hududiy eksport umumiyligi hajmidagi ulushi salmoqlidir. Navoiy shahridagi korxonalar sement, alyuminiy va PVX, shuningdek, ohak, ohaktosh, gips, quruq qurilish aralashmalarini, betonit, marmar plitalarini va granit mahsulotlarining tashqi bozorlari bilan faol ishlamoqda. Ushbu holatga mos ravishda tashqi savdo faolligi ko'rsatkichlari o'sib bormoqda. 2022-yili 43,8 million dollarlik tayyor mahsulot eksport qilinib, kutilayotgan prognoz 22 foizga ortig'i bilan bajarilib, valyuta ekvivalentida 7781,1 ming dollardan ortiqni tashkil etdi. Shu bilan birga, viloyatga yetti million dollarlik sanitariya-texnik vositalari, qurilish oynalari, lak-bo'yoqlar, yog'och va boshqa mahsulotlar import qilindi. Tashqi bozorga qaramlik holatini o'zgartirish maqsadida mintaqa boy mineral xom ashyo bazasiga ega bo'lgan raqobatdosh ustunlikdan foydalandi va ochiqlik siyosati mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha umumiyligi qiymati 1163,8 milliard so'mlik 83 tadbirkorlik tashabbusini xorijiy kapital hisobidan moliyalashtirish o'tgan yili 62,5 foizni tashkil etdi. Buning samarasida 477 milliard so'mlik qo'shimcha ishlab chiqarish quvvati va 1647 ish o'rni yaratildi. «Navoiy» erkin iqtisodiy zonasida barpo etilayotgan va hozirda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini o'z ichki ishlab chiqarish bozorini qurilish materiallari bilan ta'minlash va eksport qilish uchun tabiiy imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishga namuna sifatida qaralmoqda.

2023-2024-yillarda qurilish materiallari ishlab chiqarishni 37,5 trillion so'mga yetkazish rejalashtirilgan. Mahalliyashtirish dasturi doirasida umumiyligi qiymati 950 milliard so'mlik 17 loyiha bo'yicha qurilish materiallari ishlab

¹⁸ <https://py.essays.club/Гуманитарные-науки/Экология/Импортозамещение-стройматериалов-484632.html>
18

chiqarish rejalashtirilgan. Bu ularning importini 86 million dollarga qisqartirishi kutilmoqda.

Bugungi kunda deyarli har kuni yangi materiallar va texnologiyalar paydo bo‘lmoqda. «Butun dunyo bo‘ylab qurilish materiallari sanoati (QMS) nisbatan yaqinda yangi texnologiyalarni qo‘llashning eng konservativ sohalaridan biri hisoblangan.»¹⁹ So‘nggi o‘n yillikda turar-joy va noturarjoy ko‘chmas mulkni qurish jarayonini o‘zgartirgan ko‘plab yangi materiallar va original texnologiyalar paydo bo‘ldi.

Qurilish sanoati korxonalarini texnologik yangilash, asosan, chet el texnologiyalarini, birinchi navbatda, texnologik asbob-uskunalarni import qilish orqali qarz olish shaklida amalga oshiriladi. Bu jarayon iqtisodiyotning innovatsion yangilanishga bo‘lgan ehtiyojlari va bu ehtiyojlarni mamlakat ilmiy-tadqiqot kompleksi yordamida qondirish imkoniyati o‘rtasidagi mavjud tafovut mavjudligi va kengayganligidan dalolat beradi. Biroq, qurilish sanoatida import o‘rnini bosish jarayonlari bir qator cheklowlarga ega.

6-jadval Qurilish sanoatida import o‘rnini bosish imkoniyatlari va cheklovlar²⁰

